

## BOLALARDA STIMUL MATN ASOSIDA ASSOTSIATIV EKSPEREMENT

**Abduraxmonova Sohiba Aktam qizi**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU O‘zbek tilshunosligi kafedrasи lingvistika  
yo‘nalishi 2-kurs magistranti

[Abduraxmonovasohiba16@gmail.com](mailto:Abduraxmonovasohiba16@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Mazkur ilmiy maqolamiz bolalarning matnni tushunish jarayonida yuzaga keladigan assotsiatsiyalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Maqolada assotsiatsiya, uning ifodalanish usullari, assotsiatsiyaning turlari haqida ma’lumot keltirilgan bo‘lib, bolalar nutqi tanlab olingan matnlar orqali tahlil qilingan. Maqolada bolalarda yuzaga keladigan assotsiyalarga alohida to‘xtalib, ular assotsiatsiyaning qaysi turi ekanligi, ularni yuzaga kelishida sabab bo‘luvchi omillar tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** Assotsiatsiya, eksperement, erkin assotsiativ eksperement, yo‘naltirilgan assotsiativ eksperement, zanjirli assotsiativ eksperement, stimul-so‘z, reaksiya-so‘z.

## THE IMPORTANCE OF ASSOCIATION IN CHILDREN’S COMPREHENSION OF TEXT

**Annotation:** This scientific article covers the associations that arise in the process of children’s understanding of the text. The article provides information about association, its expression methods, types of association, and analyzes children’s speech through selected texts. The article focuses on the associations that occur in children, what type of association they are, and the factors that cause them to occur are analyzed.

**Key words:** Association, experiment, free experiment, directed experiment, chain experiment, stimulus word, reaction word.

## ЗНАЧЕНИЕ АССОЦИАЦИИ В ПОНИМАНИИ ТЕКСТА ДЕТЬМИ

**Аннотация:** В данной научной статье рассматриваются ассоциации, возникающие в процессе понимания детьми текста. В статье дается информация об ассоциации, способах ее выражения, видах ассоциации, анализируется детская речь по выделенным текстам. В статье основное внимание уделяется ассоциациям, возникающим у детей, к какому типу они относятся, а также анализируются факторы, вызывающие их возникновение.

**Ключевые слова:** Ассоциация, эксперимент, свободный, направленный, связанный, слово -стимул, слово- реакция.

## KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Bugungi kunda tilshunosligimizda antroposentrik tilshunoslik yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan psixolingvistika yangi yo‘nalish sifatda rivojlanmoqda. Bilamizki, tilshunoslik grammatikani insonning qatnashuviziz ham o‘rgana oladi ammo psixolingvistikada jonli muloqot yoki tajriba zarur. Shu sababdan psixolingvistik eksperiment o‘tkazish qator afzalliklarga ega. Tadqiqotchi holatni modellashtirish mobaynida tayyor matnni tahlil qilishda nutq mexanizmlarini ko‘proq o‘rgana oladi. Oddiy kuzatish metodidan ko‘ra ko‘proq ma’lumotga ega bo‘ladi. Tilshunoslikda fonetika va semantika sohasida ko‘plab eksperimental metodikalar ishlab chiqilgan va tadqiqotlar o‘tkazilgan. Ushbu tajribalar asosida psixolingvistikada ham ko‘plab eksperimental tajribalar o‘tkazilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI (LITERATURE REVIEW AND RESEARCH METHODOLOGY).

Til birliklarining paydo bo‘lishini tushuntirishda psixologik yo‘nalish vakillari psixologiyaning “assimilyatsiya”, “assotsatsiya”, “appersepsiya” kabi atamalardan foydalandilar. Ayniqsa, “assotsatsiya” tushunchasi A.A.Potebnyaning fikricha, so‘zning paydo bo‘lishi, so‘z etimologiyasini bayon qilishda keng qo‘llaniladi. N.B.Kushevskiyning esa assotsiativ munosabatga quyidagicha izoh beradi: ”Har qanday so‘z o‘xhashlik belgisiga ko‘ra boshqa so‘zlar bilan bog‘liq bo‘ladi, bu o‘xhashlik nafaqat tashqi, tovush, morfologik, ichki, semasiologik jihatga ko‘ra ham ongimizda o‘ziga o‘xshagan boshqa so‘zlarni qo‘zg‘atishga va ular bilan qo‘zg‘alishga qodir bo‘ladi.[1,2017]. Stimul so‘zni eshitganimizda ma’lum birliklar beixtiyor xotiramizga kela boshlaydi. Mana shu jarayon assotsiativ birlikning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir.

Assotsiatsiya inson ongi va tafakkuri mahsuli bo‘lgani bois, jahon tilshunosligida bu hodisa nafaqat kattalar balki kichik yoshdagи bolalar nutqi ustida o‘tkazilgan tajribalar asosida ham atroficha tadqiq etilgan. Bolalar nutqida hosil bo‘luvchi assotsiativ birlilar ularning yoshi va gender jihatiga ko‘ra farqlanishi mumkin. Shuningdek, bola nutqining rivojlanganlik darajasi ham alohida ahamiyatga molik. Dastlab, bolalar nutqida verbal assotsiatsiyalarga XX asrning 20-yillarda A.R.Luriya tomonidan munosabat bildirilgan. U bolalar nutqida yuzaga keluvchi verbal assotsiatsiyalarning stimul so‘z bilan semantik bog‘liqligi yoki bog‘liq emasligi, stimul so‘z va javob reaksiyasi o‘rtasidagi munosabatni tasniflagan. K.G.Yung esa assotsiativ tajriba faqat stimul so‘zning turfa ma’nolarini ochib beribgina qolmay inson shaxsiyatini ham aniqlab beradi deydi. Professor D.Lutfullayeva assotsiativ munosabatga quyidagicha izoh beradi: “Assotsiativ munosabat bir yoki bir necha sath

birliklarining turli omillar bilan bog'liq holda inson tafakkurida assotsiativ bog'lanishini aks ettiradi. Bir til egasida biror til belgisiga nisbatan hosil bo'lgan assotsiatsiya boshqa til egasida yuzaga kelgan assotsiatsiyadan farqlanadi.[1,2017].

So'ngi yillarda psixolingvistikada tadqiqotimiz obyekti bo'lgan bolalar nutqi turli tajribalar asosida tahlil qilingan. Bolalar nutqida assotsiativ tajriba o'tkazilgan bo'lsada bu jarayon yaxlit tarzda tahlil qilinmagan.

**Assotsiativ munosabat-** (*lot. associo – birlashish, qo'shish*) – lisoniy birliklarning bir-birini eslatib turishidir. Masalan, [a] fonemasi [o] fonemasini, [u] fonemasi [o'] fonemasini, [i] fonemasi [e] fonemasini eslatadi. Lekin [a] fonemasi dabdurustdan [q] yoki [g'] fonemasini eslatmaydi. [ ] Chunki ular ikki tizim – unli va undosh tizimiga kiradi. Bir-birini eslatuvchi birliklar umumiy o'xshash belgilarga ega bo'ladi. Masalan, kelishik shakllarining umumiy belgisi "so'zni so'zga bog'lash", ammo ular farqli belgilarga ham ega bo'lishi shart, ya'ni qaratqich kelishigi otni otga, tushum kelishigi otni fe'lga bog'laydi. .[2.2014]

## TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS).

Til birliklarining assotsiativ aloqasini matn yaratilishining asosiy omillaridan biridir[1, 2017] Assotsiativ qatorlarni alohida so'z sifatida tahlil qilgandan ko'ra matn asosida tahlil qilish keng natija beradi. Bunda ma'no kontekst orqali yuzaga keladi. Bolalarda so'z va uning matn ichida kelishida assotsiatsiyaning o'zgarishini ohib berish maqsadida quyidagi tajriba o'tkazildi. Mazkur tajribada "Yo'limizdag'i to'siqlar" matnidan 10 ta so'z tanlab olindi. Dastlab so'zlar ro'yxati berildi va ularga izoh yozish so'raldi. Tajribada Olmazor tumani 165-maktabning 16 nafar 5-sinf o'quvchilari qatnashdi.

### Yo'limizdag'i to'siqlar

Qadim **zamon**larda bir podshoh saroya keladigan yo'l ustiga katta tosh qo'ydirib, o'zi nimalar bo'lishini yashirin kuzatib o'tirdi. Yurtning eng badavlat **savdogar**lari, eng kuchli **karvonboshilar**, saroy **amaldor**lari bir-bir kela boshladilar. Hamma toshning atrofidan aylanib o'tib, ichkariga kirdi. Aksariyati: "Xalqdan ko'p soliq olib, yo'llarga e'tibor qilmaydi" – degan ro'kachlar bilan shohdan noroziligini ovoz chiqarib gapirdi. Nihoyat, bir dehqon keldi. U saroya meva va sabzavotlar olib kelayotgan edi. **Yelkasidagi** savatni yerga qo'yib, xarsangtoshni bir **amallab** itara boshladidi. Qo'llari qonab, **a'zoyi badani** terga botdi. Lekin toshni yo'l ustidan chetga chiqarishga **muvaffaq** bo'ldi.

Madina Mansurjonovaning matnni eshitishdan oldin va keyin yozgan assotsiatsiyalar:

Matnda mavjud so‘z	Sinaluvchi tomonidan yuzaga kelgan assotsatsiya
Zamon	Qiyomat
Savdogar	Savdo qiladiga odam
Karvonboshi	Karvon boshqaruvchi
Amaldor	Amal qiladigan odam
Xalq	Odamlar
E’tibor	E’tiborga muhtoj
Yelka	Odam a’zosi
Amallab	Zo‘rg‘a
A’zoyi badan	Odam a’zosi
Muvaffaq	Kerak

Matn o‘qib eshittirilgandan so‘ng yuzaga kelgan assotsatsiya

Matndagi so‘zlar	Matn o‘qib eshittirilgach yuzaga kelgan assotsatsiya
Zamon	O‘tgan zamon
Savdogar	Mehnatkash
Karvonboshi	Hayvon boshqaruvchi
Amaldor	Amal qilish kerak
Xalq	Odamlar
E’tibor	E’tibor berish
Yelka	Odam a’zosi
Amallab	Harakat qilish
A’zoyi badan	Sog‘lik
Muvaffaq	Erishish

Ushbu jadvaldan shuni ko‘rishimiz mumkinki, sinaluvchida matn o‘qib eshittirilganidan keyin assotsiatsiyalar o‘zgardi. Buning sababi kontekstagi ma’no konkretlashdi.

Assotsiatsiyani ma’lum turlarga, xususan, paradigmatic va sintagmatik assotsiatsiyalarga ajratish mumkin. Quyidagi tajriba shu turlar orqali aniqlangan:

### Qutb yulduzi

Bilasizmi, yulduzlarning ham “yulduzi”, ya’ni mashhurlari bo‘ladi. Qutb yulduzi ana shundaylardan biri. Chunki u o‘tgan davrlar mobaynida ko‘plab adashganlarga yo‘l ko‘rsatib, o‘z manzillariga eson-omon yetib olishlarida ko‘makchi bo‘lgan.

Qadimda dengizchilar yoki sahrodagi karvonlar yulduzlarning joylashishiga qarab yo‘lni aniqlashgan. Yulduzlarni o‘rganib, ularning xaritasini chizib beradigan kishilarni esa “munajjim” deb atashgan.

Qutb yulduzi osmondagи eng yorqin yulduzlardan biri bo‘lgani uchun uni topib olish qiyin emas. Olimlarning aytishicha, kunlar, oylar, ba’zan yillar o‘tishi bilan yulduzlarning samodagi o‘rni o‘zgarib turar ekan. Faqatgina Qutb yulduzi o‘z joyidan hech qachon jilmaydi, doim osmonning shimoliy qismida yaraqlab turadi. Shunday o‘ziga xos xususiyati tufayli sayyohlar Qutb yulduziga qarab shimol, janub, sharq va g‘arbni aniqlay olishgan.

1-eshitishdan so‘ng	2-eshitishdan so‘ng	3-eshitishdan so‘ng
Yulduz	Topib olishgan	Qutb yulduzlarini tanish qiyin emas
Yo‘l	Orqali yo‘lni	Ular yorqinroq
Manzil	Karvonchilar	Yo‘lni topib olishgan
Shimol	Qimirlamaganlar	Samo
Osmon	Ba’zan yillar	Jilmaydi
Xarita	Joylarini o‘zgartirishgan	Adashgan insonlarga
Olimlar		O‘zgarmaydi
Dengizchilar		
Joylashgan		
Munajjim		
Qadimda		

### Paradigmatik assotsiatsiyalar

Davr	Zamon,vaqt
Shimol	Janub
Karvon	Sahro
Mashhur	Taniqli, tanilgan,
Munajjim	Astronom, olim
Adashganlarga	Yo‘lini yo‘qotganlarga, yo‘qolib qolganlarga
Sayyoh	Sayohatchi,
Ko‘mak	Yordam,
Ichida	Tashqarisida
Odamlar	Insonlar, kishilar
Yillar	Vaqtlar, zamonlar
Porlab	Charaqlab,yaltirab

### Sintagmatik assotsiatsiyalar

Eson-omon	Yetib olishlariga
Ko'makchi	Bo'lgan
Yulduzlarning	Joylashishi
O'z	Joyidan
Ba'zan	Yillar
Adashib	Qolsa
Topib	Olishgan
Orqali	Yo'lni

Sinaluvchilardan olgan natijalarimizga ko'ra assotsiatsiyalarni 3 guruhga ajratishimiz mumkin:

1. Sinaluvchi so'zning ma'nosini yaxshi tushungan, lekin shaklini eslab qola olmagan, bu so'zga ma'no jihatdan mos tushadigan sinonimidan foydalangan.
2. Sinaluvchi matndagi biror so'zni eslab qolgan lekin uni gap shaklida qayta shakllantira olmagan. Bunda so'z birikmasidagi assotsiatsiya vujudga kelgan.
3. Matnda ishtirok etgan kirish so'zlar esda qolgan va bu so'zlarga bor e'tiborni berib matn mazmuni esda qolmagan.

Z.Freydning fikricha, so'zlarning assotsiatsiyalari nafaqat vaziyatga aloqador, balki effekt, ichki his-hayajon, tuyg'u jarayoni ham bo'lishi mumkin[5,2018]. Sinaluvchilar nutqi ustida o'tkazilgan assotsiativ tajriba natijalariga asosan, stimul so'zlarning mazmuni, ularning bolalar nutqida keng qo'llanilganiga ko'ra javob reaksiyaları bir-biridan farqli bo'ldi. Shuningdek, tajriba davomida bolalar nutqida individual xarakterga ega bo'lidan, so'z birikmasi va gap shaklidagi reaksiyalar ham kuzatildi. Ba'zi kuzatuvchilar so'zni bayon tarzida ham ifodalagan.

### XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/ RECOMMENDATION).

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, assotsiativ tajriba stimul so'zning ma'nolarini ochib berish bilan birga insonga xos individuallik, shaxsiyatni xos xususiyatlarni ochib beradi. Bolalarda stimul matn asosida yuzaga keladigan assotsiatsiyalar so'z shaklida berilgan assotsiatsiyalarga qaraganda kengroq ifodalanadi. Matndan ajratib olingan so'z shaklidagi assotsiatsiyalar matn mazmunidan uzoq bo'lsa, matnni eshitgach yuzga kelgan assotsiatsiyalar matn mazmuniga mos bo'ladi. Bolalarning lisoniy ongida hozil bo'lidan assotsiativ birliklarning xarakterli jihat shundaki, ular nutqida kattalardan farqli ravishda xayoliga kelgan ilk fikrni aytish kuzatiladi. Bu bolalardagi verbal assotsiatsiyaning o'ziga xos jihat sanaladi. Bolalarda asosan assotsatsiya ko'rvin xotirasi bilan bog'liq. Shu sababli ham stimul so'zg aloqador bo'limgan javoblar ham ko'p bo'lishi tabiiy.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /  
REFERENCES).**

1. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: “Meriyus”, 2017.
2. Usmonova Sh. Psixolingvistika. – Toshkent: 2014.
3. Azimova I. O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persipsiyasining psixolingvistik tadqiqi. Monografiya, Toshkent:2019.
4. Mahmudov N, Sobirov A, Sattorov Sh. Ona tili( 5-sinf uchun darslik). –Toshkent :2020.
5. O’zbek tili va adabiyoti. –Toshkent :2018.